Mamlakatimizda so'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes muhitini yanada yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Mazkur strategik hujjatlarda xususiy sektorning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Shuningdek, qurilish sohasini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar tarmoqda shaffoflik, sifat va xavfsizlik talablarini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tahlillar qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat amaliyotini yanada tizimli rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Yirik korxonalarda mehnat muhofazasi va ekologik talablar bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo'lsa, kichik va o'rta biznes subyektlarida ushbu yo'nalishni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha alohida strategiya va hisobot yuritish amaliyotini kengaytirish, xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan dastlabki tahlillar qurilish korxonalarida ijtimoiy mas'uliyat asosan mehnat xavfsizligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlari doirasida amalga oshirilayotganini, ekologik boshqaruv va manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish esa istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Bu esa sohada barqaror rivojlanish tamoyillarini yanada keng joriy etish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) masalasi so'nggi yillarda xalqaro miqyosda biznes boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Ilmiy manbalarda KIMning korxona barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Biroq mazkur yondashuvlarning qurilish sohasi misolida amaliy qo'llanilishi alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat nazariyasining shakllanishida Archie B. Carroll tomonidan ishlab chiqilgan piramida modeli muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, korxonalar, avvalo, iqtisodiy va huquqiy majburiyatlarni bajarishi, shundan so'ng axloqiy va filantropik mas'uliyatni amalga oshirishi lozim. Qurilish sohasi nuqtai nazaridan mazkur modelni qo'llash shuni ko'rsatadiki, qurilish korxonalari nafaqat loyiha rentabelligini ta'minlashi, balki qurilish xavfsizligi, ekologik talablar hamda mahalliy hamjamiyat manfaatlarini ham inobatga olishi muhim ahamiyat kasb etadi [2].

R. Edward Freeman tomonidan ilgari surilgan manfaatdor tomonlar nazariyasi qurilish tarmog'ida ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Chunki qurilish jarayonida aksiyadorlar, investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, xodimlar, mahalliy aholi va davlat organlari kabi ko'plab manfaatdor tomonlar ishtirok etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, korxona qarorlar qabul qilishda barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarini muvozanatlashgan holda hisobga olishi zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qurilish korxonalarida iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi [3].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida John Elkington tomonidan taklif etilgan "Triple Bottom Line" modeli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni uyg'un holda ta'minlash zarurligini asoslaydi. Qurilish sohasi tabiiy resurslardan keng foydalanishi, infratuzilma rivojlanishida muhim o'rin tutishi hamda mehnat xavfsizligi bilan bog'liq omillar mavjudligi sababli, mazkur model ushbu tarmoq uchun alohida strategik ahamiyatga ega hisoblanadi [4].

M. Tang va Y. Wang tadqiqotlarida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhim omil sifatida qayd etilgan. Bu jihat qurilish sohasida ayniqsa



muhim, chunki infratuzilma va ijtimoiy loyihalarning katta qismi davlat ishtirokida amalga oshiriladi. Shu bois soliq imtiyozlari, tender mezonlariga ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni kiritish kabi mexanizmlar qurilish korxonalarida KIMni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va aksiyadorlik jamiyatlarida shaffoflikni oshirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, D. Suyunov va E. Hoshimov korporativ boshqaruv samaradorligini baholash metodologiyasida ijtimoiy mas'uliyat komponentini alohida ajratib ko'rsatgan. Ushbu yondashuv qurilish korxonalarida ham dolzarb bo'lib, mehnat xavfsizligi, ekologik mas'uliyat hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot korxona boshqaruvining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi [6].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar, asosan, umumiy korporativ boshqaruv yoki sanoat korxonalari misolida olib borilgan bo'lib, qurilish sohasi kesimida kompleks ilmiy tahlillar nisbatan kam uchraydi. Qurilish tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari — loyiha asosida faoliyat yuritish, yuqori kapital sig'imi, uzoq muddatli investitsiya sikli hamda ekologik va ijtimoiy omillarning muhim o'rni — KIMni alohida ilmiy yondashuv asosida o'rganishni taqozo etadi.

Demak, ilmiy adabiyotlarda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning nazariy asoslari va umumiy iqtisodiy samaradorligi keng yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston qurilish korxonalarida uning amaliy holati, joriy etish mexanizmlari hamda iqtisodiy natijalarga ta'siri masalalari yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda qurilish sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM)ning amaldagi holatini aniqlash hamda uni rivojlantirish istiqbollarini asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'unlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turar-joy qurilishi, sanoat obyektlari va infratuzilma loyihalari hajmining ortishi ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni hamda ularning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, qurilish jarayonlarining ekologik va ijtimoiy jihatlariga ta'siri ortib borayotgani korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) masalasining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikamiz qurilish korxonalarida KIM elementlari mavjud bo'lsa-da, ular, asosan, alohida yo'nalishlar doirasida amalga oshirilmogda va hali to'liq tizimli strategiya shaklida joriy etilmagan.

Ijtimoiy yo'nalish. Qurilish korxonalarida ijtimoiy mas'uliyat, asosan, mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligini ta'minlash hamda xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarda namoyon bo'ladi. Yirik kompaniyalarda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, xodimlarni maxsus himoya vositalari bilan ta'minlash, ularning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan o'quv va trening dasturlarini tashkil etish amaliyoti kengroq yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, kichik va o'rta qurilish korxonalarida mehnat sharoitlarini yanada takomillashtirish, ishchi kuchidan samarali va barqaror foydalanish hamda bandlikni rasmiylashtirish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu esa ijtimoiy mas'uliyatni yanada tizimli ravishda rivojlantirish uchun muhim zaxiralar mavjudligini ko'rsatadi.

Ekologik yo'nalish. Qurilish sohasi tabiiy resurslardan keng foydalanishi hamda qurilish chiqindilarining hosil bo'lishi bilan ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayrim yirik qurilish kompaniyalarida energiya tejankor materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar joriy etilmogda.

Shu bilan birga, qurilish chiqindilarini samarali boshqarish tizimini yanada rivojlantirish, ekologik monitoring va hisobot yuritish amaliyotini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro standartlar asosida ekologik boshqaruv tizimini joriy etgan korxonalar sonini oshirish ushbu sohada ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruv va shaffoflik. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning muhim jihatlaridan biri — boshqaruv shaffofligini ta'minlash va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishdir. Davlat buyurtmalari asosida faoliyat yurituvchi yirik qurilish korxonalarida moliyaviy hisobot tizimi shakllangan bo'lsa-da, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha muntazam hisobot yuritish amaliyotini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.



Ko'plab qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) bo'yicha alohida strategiya yoki mas'ul bo'linma tashkil etilmagan. Natijada, ijtimoiy mas'uliyat korporativ boshqaruv tizimining to'liq integratsiyalashgan elementi sifatida emas, balki qo'shimcha faoliyat yo'nalishi sifatida amalga oshirilmoqda. Bu esa KIMni tizimli ravishda joriy etish va uning samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur holatni aniqlash maqsadida tadqiqot doirasida 120 ta qurilish korxonasi faoliyati o'rganildi. Shundan 40 tasi yirik, 50 tasi o'rta va 30 tasi kichik korxonalardan iborat. Korxonalarning 2023–2024-yillardagi moliyaviy va tashkiliy ko'rsatkichlari hamda KIM faoliyati bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Korxonalar kesimida KIM indeksi (o'rtacha ball)

Korxona toifasi	Iqtisodiy blok	Ijtimoiy blok	Ekologik blok	KIM indeksi (0–100)
Yirik (n=40)	72	68	61	67
O'rta (n=50)	58	52	46	52
Kichik (n=30)	44	39	33	39
O'rtacha	59	55	49	55

Hisob-kitoblarga ko'ra, qurilish korxonalarida KIMning o'rtacha integral indeksi 55 ballni tashkil etdi (100 ballik shkala bo'yicha). Eng yuqori ko'rsatkich yirik korxonalarda (67 ball), eng past ko'rsatkich esa kichik korxonalarda (39 ball) qayd etildi.

Yuqorida keltirilgan integral KIM indeksi natijalari qurilish korxonalarida ijtimoiy mas'uliyat darajasi korxona hajmi va uning tashkiliy-institutsional salohiyati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Yirik korxonalarda moliyaviy resurslarning kengligi, boshqaruv tizimining nisbatan rivojlanganligi hamda xalqaro standartlarni joriy etish imkoniyatlarining yuqoriligi KIM ko'rsatkichlarining yuqoriroq darajada shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, umumiy integral indeks natijalari ijtimoiy yo'nalishdagi alohida ko'rsatkichlarni yanada chuqur va tizimli tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, korporativ ijtimoiy dasturlarni kengaytirish va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda 2024-yil holatiga ko'ra qurilish korxonalarida ijtimoiy mas'uliyatning asosiy institutsional va tashkiliy ko'rsatkichlari alohida o'rganildi (2-jadval).

2-jadval. Asosiy ijtimoiy ko'rsatkichlar (2024 y.)

Ko'rsatkich	Yirik (%)	O'rta (%)	Kichik (%)
Mehnat xavfsizligi bo'yicha ichki reglament	95	62	38
Xodimlar uchun yillik o'quv dasturi	82	54	27
Ijtimoiy paket (sug'urta va qo'shimcha yordam)	74	41	19
Ijtimoiy hisobot tayyorlash amaliyoti	46	18	3

Jadval ma'lumotlari qurilish korxonalarida ijtimoiy mas'uliyat darajasi korxona hajmiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Yirik korxonalarning 95 foizida mehnat xavfsizligi bo'yicha ichki reglament mavjud. Bu holat yirik kompaniyalarda institutsional boshqaruv tizimi shakllanganini va mehnat muhofazasi talablari tizimli ravishda yo'lga qo'yilganini anglatadi. O'rta korxonalarda ushbu ko'rsatkich 62 foizni, kichik korxonalarda esa 38 foizni tashkil etadi. Mazkur natijalar kichik biznes segmentida mehnat xavfsizligini yanada rivojlantirish va institutsional mexanizmlarni mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Xodimlar uchun yillik o'quv dasturlari mavjudligi bo'yicha ham sezilarli tafovut kuzatiladi: yirik korxonalarda bu ko'rsatkich 82 foizni, o'rta korxonalarda 54 foizni, kichik korxonalarda esa 27 foizni tashkil etadi. Bu holat inson kapitalini rivojlantirish darajasi korxonaning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi hamda kelgusida barcha toifadagi korxonalarda xodimlar malakasini oshirish tizimini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.


Ijtimoiy paket (sug'urta, qo'shimcha yordam, kompensatsiyalar) bo'yicha ko'rsatkichlar ham shunga o'xshash tendensiyanı namoyon etadi. Yirik korxonalarning 74 foizida ijtimoiy paket joriy etilgan bo'lsa, kichik korxonalarda bu ko'rsatkich 19 foizni tashkil etadi. Ushbu natijalar qurilish sohasida ijtimoiy himoya mexanizmlarini yanada kengaytirish orqali mehnat munosabatlarini takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.



Ijtimoiy hisobot tayyorlash amaliyoti bo'yicha ham sezilarli farqlar kuzatiladi. Yirik korxonalarda bu ko'rsatkich 46 foizni, o'rta korxonalarda 18 foizni, kichik korxonalarda esa 3 foizni tashkil etadi. Umumiy holda mazkur ko'rsatkich o'rtacha 23 foizga teng. Bu esa qurilish sohasida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos hisobot yuritish amaliyotini keng joriy etish istiqbollari mavjudligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy yo'nalishdagi tahlillar qurilish korxonalarida inson kapitalini rivojlantirish va mehnat munosabatlarini takomillashtirish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishilayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, korporativ ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi nafaqat ijtimoiy, balki ekologik barqarorlik jihatlarini ham qamrab olishi zarur. Qurilish sohasi tabiiy resurslardan keng foydalanishi, atrof-muhit bilan uzviy aloqada faoliyat yuritishi hamda chiqindilar hosil qilishi sababli ekologik boshqaruv mexanizmlarini samarali joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida qurilish korxonalarida ekologik boshqaruv va resurslardan foydalanish samaradorligiga oid asosiy ko'rsatkichlar ham alohida tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Ekologik ko'rsatkichlar

Regressiya tahlili natijasida quyidagi model shakllantirildi:

$$ROA = 3.2 + 0.08 \times KIM_Index$$

Model natijalariga ko'ra:

- β koeffitsient = 0.08
- t-statistika = 2.74
- p-qiymat < 0.05
- $R^2 = 0.41$

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qurilish korxonalarida ekologik yo'nalish bo'yicha faollik hali rivojlanish bosqichida bo'lib, ushbu yo'nalishda sezilarli o'sish imkoniyatlari mavjud. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi 41 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich ekologik tashabbuslar ichida eng yuqori hisoblanadi. Ushbu holat energiya resurslaridan samarali foydalanish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Chiqindilarni saralash amaliyotini joriy etgan korxonalar ulushi 37 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, qurilish chiqindilarini qayta ishlash va ikkilamchi materiallardan foydalanish darajasi 29 foizni tashkil etmoqda. Mazkur natijalar resurslardan samarali foydalanish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini yanada keng joriy etish uchun muhim salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Eng past ko'rsatkich ekologik audit o'tkazgan korxonalar ulushiga to'g'ri kelib, u 18 foizni tashkil etadi. Bu holat qurilish sohasida ekologik boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish, ekologik audit amaliyotini kengaytirish hamda ekologik monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ekologik auditni keng joriy etish ekologik xavflarni baholash, ularning oldini olish va barqaror rivojlanish tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari qurilish korxonalarida ekologik mas'uliyat bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini va ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni yanada kuchaytirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan ekologik standartlarni izchil joriy etish, ekologik audit amaliyotini kengaytirish hamda chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.



Qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) nafaqat ijtimoiy va ekologik yo'nalishlarni qamrab oluvchi omil, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli tadqiqot doirasida KIM indeksi bilan korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik alohida tahlil qilindi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), sof foyda marjasi hamda investitsiyalarni jalb qilish hajmi asosiy ko'rsatkichlar sifatida qabul qilindi. O'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalari KIM indeksi va ROA o'rtasida musbat va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($r = 0,64$). Mazkur natija o'rtacha kuchli bog'liqlikni ifodalaydi va korporativ ijtimoiy mas'uliyat darajasining oshishi korxonalarning iqtisodiy samaradorligi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Bu natijalar KIM indeksi va aktivlar rentabelligi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Ya'ni, KIM indeksi 10 ballga oshganda, ROA o'rtacha 0,8 foiz punktga oshishi kuzatiladi.

Bundan tashqari, KIM indeksi 60 balldan yuqori bo'lgan korxonalarda:

- investitsiya jalb qilish hajmi o'rtacha 18–22 foizga yuqori;
- davlat tenderlarida g'olib bo'lish ehtimoli 1,3 baravar yuqori;
- kredit reyting ko'rsatkichlari nisbatan barqaror ekanligi kuzatildi.

Ekologik tashabbuslarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarining 6–9 foizga kamayishi aniqlangan. Shuningdek, mehnat xavfsizligi tizimi samarali tashkil etilgan korxonalarda ishchi aylanishi (turnover) darajasi 14 foizdan 8 foizgacha pasaygani kuzatildi.

Ushbu natijalar KIM nafaqat ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlovchi mexanizm, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi strategik instrument ham ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, KIMni rivojlantirishni xarajat sifatida emas, balki korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi investitsiya sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, tahlil natijalari KIM indeksi nisbatan past bo'lgan kichik korxonalarda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari ham pastroq darajada ekanligini ko'rsatdi. Bu esa korporativ ijtimoiy mas'uliyatni korxona rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlillar O'zbekiston qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) elementlari shakllanib borayotganini, biroq uni yanada tizimli va institutsional darajada rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur holat bir qator omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, qurilish sohasida KIM bo'yicha yagona metodik yondashuv va milliy standartlarni yanada takomillashtirish zarur. Hozirgi kunda ayrim korxonalar KIMni strategik boshqaruv instrumenti sifatida to'liq integratsiya qilmagan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishda rivojlanish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjud.

Ikkinchidan, kichik va o'rta qurilish korxonalarida moliyaviy resurslarning nisbatan cheklanganligi KIM tashabbuslarini keng joriy etish sur'atiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, ekologik audit, energiya tejamkor texnologiyalar va ijtimoiy hisobot tizimlarini joriy etishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, sohada shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarur. Ijtimoiy hisobot tayyorlash amaliyotining o'rtacha 23 foizni tashkil etishi ushbu yo'nalishda rivojlanish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, KIM bo'yicha malakali mutaxassislar va ekspertlar tayyorlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda ESG mezonlarini joriy etish, ijtimoiy va ekologik risklarni baholash hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qo'llash bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarni kengaytirish zarur.

Shuningdek, tadqiqotning o'zi ham ayrim cheklavlarga ega. Xususan, tahlil 120 ta korxona misolida o'tkazilgan bo'lib, barcha hududlar xususiyatlarini to'liq qamrab olmasligi mumkin. Bundan tashqari, ayrim moliyaviy ko'rsatkichlar korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslangan. Shunga qaramay, olingan natijalar umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchi yo'nalish — KIMni korxonalarning strategik rivojlanish rejalariga integratsiya qilish. Bu ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni biznes-rejalashtirish jarayoniga tizimli ravishda kiritishni talab qiladi.

Ikkinchi yo'nalish — davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish. Jumladan, KIM va ESG mezonlarini davlat tenderlari shartlariga kiritish, ekologik audit o'tkazgan yoki ijtimoiy hisobot tayyorlagan korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinni yo'nalish — ekologik barqarorlikni ta'minlash. Qurilish chiqindilarini qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash va "yashil qurilish" standartlarini bosqichma-bosqich keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi yo'nalish — inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish. Xodimlarning malakasini muntazam oshirish, mehnat xavfsizligi standartlarini takomillashtirish va ijtimoiy paketlarni rivojlantirish korxonalar barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Beshinchi yo'nalish — ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish. Nodavlat notijorat tashkilotlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish orqali samarali va barqaror KIM loyihalarini amalga oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari O'zbekiston qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) o'rtacha 55 ball darajasida shakllanganini ko'rsatdi. Yirik qurilish korxonalarida KIM elementlari nisbatan yuqori darajada joriy etilgan bo'lsa-da, kichik va o'rta korxonalarda ushbu yo'nalishdagi institutsional mexanizmlarni yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Bu holat korxonalarning moliyaviy, tashkiliy va boshqaruv salohiyati bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil natijalari korporativ ijtimoiy mas'uliyat darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasida musbat va ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Xususan, KIM indeksi oshishi aktivlar rentabelligi, investitsiya jalb qilish darajasi, moliyaviy barqarorlik hamda korxonalarning raqobatbardoshlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu esa korporativ ijtimoiy mas'uliyatni korxona rivojlanishining muhim strategik omillaridan biri sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ekologik audit o'tkazish va ijtimoiy hisobot tayyorlash amaliyotining nisbatan past darajada ekanligi ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat korporativ ijtimoiy mas'uliyatni boshqaruv tizimiga chuqur integratsiya qilish orqali nafaqat ijtimoiy va ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, korporativ ijtimoiy mas'uliyat qurilish sohasida qo'shimcha xarajat sifatida emas, balki korxonalar barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik investitsiya sifatida qaralishi lozim. Uni institutsional darajada rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan integratsiya qilish hamda xalqaro standartlar asosida joriy etish orqali qurilish tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari O'zbekiston qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) o'rtacha 55 ball darajasida shakllanganini ko'rsatdi. Yirik qurilish korxonalarida KIM elementlari nisbatan yuqori darajada joriy etilgan bo'lsa-da, kichik va o'rta korxonalarda ushbu yo'nalishdagi institutsional mexanizmlarni yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Bu holat korxonalarning moliyaviy, tashkiliy va boshqaruv salohiyati bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil natijalari korporativ ijtimoiy mas'uliyat darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasida musbat va ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Xususan, KIM indeksi oshishi aktivlar rentabelligi, investitsiya jalb qilish darajasi, moliyaviy barqarorlik hamda korxonalarning raqobatbardoshlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu esa korporativ ijtimoiy mas'uliyatni korxona rivojlanishining muhim strategik omillaridan biri sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ekologik audit o'tkazish va ijtimoiy hisobot tayyorlash amaliyotining nisbatan past darajada ekanligi ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat korporativ ijtimoiy mas'uliyatni boshqaruv tizimiga chuqur integratsiya qilish orqali nafaqat ijtimoiy va ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, korporativ ijtimoiy mas'uliyat qurilish sohasida qo'shimcha xarajat sifatida emas, balki korxonalar barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik investitsiya sifatida qaralishi lozim. Uni institutsional darajada rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan integratsiya qilish hamda xalqaro standartlar asosida joriy etish orqali qurilish tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. Javeed, S. A., Latief, R., Cai, X., Ong, T. S., Qian, S., & Ul Haq, A. What is the role of the board sustainable committee for corporate social responsibility? The moderating effect of gender diversity and ownership concentration. // Journal of Cleaner Production. – 2022. – Vol. 379, Part 2.
4. Sarwar, H., Aftab, J., Ishaq, M. I., & Atif, M. Achieving business competitiveness through corporate social responsibility and dynamic capabilities: An empirical evidence from emerging economy. // Journal of Cleaner Production. – 2023. – Vol. 386.
5. Alhosani, N. H. I., & Nobanee, H. Board gender diversity and corporate social responsibility: A bibliometric analysis. // Heliyon. – 2023. – Vol. 9, Issue 1.
6. Tang, M., & Wang, Y. Tax incentives and corporate social responsibility: The role of cash savings from accelerated depreciation policy. // Economic Modelling. – 2022. – Vol. 116.



7. Luo, Y., Ma, J., Wang, Y., & Ye, A. Board internationalization and corporate social responsibility. // The North American Journal of Economics and Finance. – 2022. – Vol. 63.
8. Suyunov, D., & Xoshimov, E. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning metodologik jihatlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2018. – №2.
9. Xoshimov, E. A., & Muratayev, M. M. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'nalishi sifatida. // Korporativ va loyiha boshqaruvi: joriy holat, muammolar va zamonaviy mexanizmlar. – Toshkent, 2021.
10. Ashurov, Z. A. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi va uni O'zbekistonda joriy etish muammolari. // O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda menejment va korporativ boshqaruvning ahamiyati. – Toshkent, 2020.
11. Karimov, I. O. Attracting investment projects to the construction industry and improving their efficiency. // Ekonomika: analiz i prognozy. – 2021. – №2. – pp. 127–134.
12. World Bank. Small and Medium Enterprises Finance. – Available at: <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. – Available at: <https://www.stat.uz>
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi. – Available at: <https://www.lex.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>